

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA FAN- TA'LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH VA DUAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Tursunboyeva Zuxra Umid qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Maktabgacha ta'lim» metodikasi kafedra
o'qituvchisi*

zuxratursunboyeva97@gmail.com

Sodiqova Dilobod Iqboljon qizi

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
@sodiqovadilobod649@gmail.com*

Annotatsiya *Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim tizimini ishlab chiqarish. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limni rivojlantirish usullari, pedagogning ta'lim jarayonlaridagi ro'li tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *professional ta'lim, ta'lim integratsiyasi, pedagog, dual ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, psixik o'sish, o'yin syujeti*

Ta'lim to'g'risidagi qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020 yil 7-avgustda ma'qullangan. Ushbu qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Professional ta'lim tizimida ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotida fan -ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi ya'ni birgalikda har tomonlama rivojlantirish aynan shu ta'lim tizimida amalga oshirilsa bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar bilan birga uning ta'lim tizimi ham rivojlanadi. Fan ta'lim tizimini ishlab chiqarish integratsiyasini taminlash tarbiyachilar tomonidan bolalarga o'z bilim, malaka, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llagan holda ta'lim berish tizimidir. Talimni rivojlantirish tarbiyachining kasbiy mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Aynan dual ta'lim tizimi to'g'risida so'z yuritganda misol tariqasida tarbiyalanuvchilarning o'zining kasbi bo'yicha ta'lim olishi, o'zini o'zi rivojlantirishi deb fikr yuritilsa bo'ladi. Talim tizimini ishlab chiqarish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki bolalar bu tizim orqali bilimga ega bo'ladi, tafakkuri rivojlanadi. Aynan shu jarayon mukammal o'rganilsa u maktabga borganda ilk bilimga ega bo'lgan holda keyingi bilimlarni egallashi oson bo'ladi. Hammamizga ma'lum, iqtisodiyotni rivojlantirishda o'rta bo'g'in kadrlarning o'rni alohida hisoblanadi. Shu sababli talabalarga o'quv faoliyatini olib borishi bilan birga ishlash imkoniyatini berdi. Biror narsaning ikki qismga taalluqli, ikki narsani ifodalovchi degan ma'nolarni bildiradi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, SHveysariya va Koreya respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega. Bolalarning ta'lim tizimini rivojlantirishning yana bir usuli o'yin syujeti hisoblanadi. D.B. Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmuni o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish taqlidiy - jarayonni o'yinlar; 2) muayyan syujetni dramalashtirilgan o'yinlar; 3) syujeti oddiy o'yinlar; 4) syujetsiz qo'lidagi o'yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari. O'yinning qiziqarliligi uning anglab yetishning osonligidadir. Meni yana bir shaxsiy qarashlaridan biri bu dual ta'lim haqida bo'lib, bu jarayon ta'limning rivojlanishiga, bolalarda psixik jarayonlarning o'sishiga

yordam beradi. Pedagoglar o'z bilimlarini o'zi boyitish bilan birga tarbiyalanuvchilarning ham bilimini boyitib borishadi. Yangi g'oyalar, metodlar paydo bo'ladi. Dual ta'lim o'z navbatida ikki tomonlama qulaylik va hamkorlik hamdir. Ta'lim olishd jarayonida bolada ta'lim olishga bo'lgan qiziqish bo'lishi lozim. Pedagoglar bolani aynan shu qobiliyatini rivojlantirsa ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga chiqadi. Chunki har bir bolada o'ziga yarasha qobiliyat mavjud bo'ladi.

Psixologiyada qobiliyatlar quyidagi turlari.

1.Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish.

2.Maxsus insoniy qoboiyatlar ijtimoiy- tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi.Umuman olganda ta'lim tizimi insoniyatning, shaxsning hayoti davomidagi uzluksiz , doimiy jarayon. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk qadam qo'ygan bolalarning o'z qobiliyati, bilimi, fikrlashining o'sishi, qo'l harakatlari rivojlanishi, matematik , hisob kitoblar, qurish va yasashi, sanat, tabiat, nutqi, rolga kirishish jarayonlarining o'sishi aynan shu maskanda yanada boyib, rivojlanib boradi.Bog'chada bolalar qyuqoridagi ta'lim jarayonlari bilan bir qatorda tengdoshlari bilan muloqot jarayonining o'zida nutqi yaxshi rivojlanadi.Nutq bilimni yetkazib berishning vositasi sifatida qaraladi. Bolalarga shu bilan birgalikda psixologik ta'lim ham berildi.

Ta'lim berish jarayonini faqat tarbiyachilarni emas ota-onalarning ham faol bo'lishini talab qiladi. Ota-onalar tarbiyachi bilan hamkorlikda ish tutsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Chuunki ota-ona bolaning ta'lim olishi, kelajagi uchun javobgar shaxs.

Ilk ta'lim oilada rivojlanadi. Bolaga ta'lim bilan birgalik tarbiya berish muhim.Chunki ta'lim bilan tarbiya chambar-chars bog'langan bo'lib, birini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonini ta'lim jarayoni bilan birgalikda olib borish fikrimcha professional ta'limga erishish uchun yuqori bosqichni egallaydi. Bola atrof olamni tanib borar ekan, unda fikrlash, o'rganishga nisbatan qiziqish shakllanadi.Maktabgacha ta'lim tashkilotiga, unda tahsil olayotgan bolalarga, davlatimizni yanada rivojlantirish, ixtirolar, yangiliklar, yuqori texnologiyalar yaratishning ilk bosqichi deb qarash lozim. Bolarni esa mana shunday buyuk ishlarni o'z aqli zakovati bilan yuqori o'rinlarga olib chiqivchi faxrimiz sifatida qarash kerak. Ularni ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishimiz, ta'lim sifatini oshirib, bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqarish keraak.

Zeroki ta'lim jamiyat rivojlanishining asosi, ma'rifatli xalqlarning oliy belgisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida qonuni.1- bob, 1-modda.
2. Qoraqolpog'iston axborot agentligi.
3. Asranboyeva M.X, Oribboyeva D.D, Boymirzayeva D.D. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.Darslik T.:Tafakkur avlodi, 2023-480b.B. 423-424-434.
4. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida tarbiyalanuvchilarni atrofalam bilan tanishtirish"-T.: „Образование,наука и инновационные идеи в мире”, 41-45, 2023.

5. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-olam bilan tanishtirish xususiyatlariga ko‘ra tashkil etish shakllari’’-T:., „Pedagog’’ jurnali 354-359.

6. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishga oid xorijiy tajribalar taxlili’’-T:., „Образование наука и инноватсионе идеи в мире’’jurnali.